

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA FEDERATSIYASIDAGI MANZIL-KOLONIYA TIZIMINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Ravshanov Abbos Odil O‘g‘li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

IV bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

"Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi"

kafedra o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasida jazo ijrosi tizimining nisbatan yengil shakli — manzil-koloniya institutining huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi hamda qo‘llanish amaliyoti qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Ikkala davlatning jazo ijro siyosati, mahkumlarning maqomi, nazorat darajasi, intizomiy choralar va mehnat faoliyatiga qo‘yilgan talablar o‘rganilib, o‘xshash va farq qiluvchi jihatlar aniqlandi. Tadqiqot natijasida inson huquqlarini kafolatlash, resotsializatsiya samaradorligini oshirish va zamonaviy jazo tizimiga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: manzil koloniyasi; jinoyat-ijroiya tizimi; ichki tartib qoidalari; jazoni o‘tash shartlari; mehnat faoliyati; mahkumning huquqlari; erkinlikni cheklash; tartibning yumshoqligi; mehnatga joylashtirish; koloniya ma‘muriyati

Kirish

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Hozirgi davrda jinoiy jazolarni insonparvarlashtirish va mahkumlarni jamiyatga qayta integratsiya qilish global trendga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ozodlikdan mahrum etishning yengil alternativ shakllari — jumladan, manzil-koloniya (O‘zbekistonda "manzil koloniyasi", Rossiyada "колония-поселение") alohida ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi jazolash institutlari mahkumni jamiyatdan to‘liq ajratsada, ularni mehnat, ta‘lim va axloqiy tiklanish orqali ijtimoiylashtirishni ko‘zlaydi.

O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi mazkur jazo turiga oid o‘xshash huquqiy asoslarga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llash amaliyoti, nazorat mexanizmlari, mahkumlar huquqlari va jamoatchilik ishtirokiga doir jihatlarida sezilarli farqlar mavjud. Shu bois ushbu maqolada manzil-koloniya institutining ikki davlatdagi rivojlanish yo‘nalishlari

qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Asosiy qisim

1. Manzil-koloniya institutining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida manzil-koloniya faoliyati Jinoyat kodeksi va Jinoyat ijroiya kodeksida mustahkamlab qo'yilgan. Agar umumiy qilib aytadigan bo'lsak manzil koloniyalari voyaga yetgan mahkumlar uchun mo'jallangan bo'lib, ushbu turdagi jazoni ijro etish koloniyasida quyidagi mahkumlar jazoni o'taydilar¹:

- Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan voyaga yetgan mahkumlar;
- Umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetgan mahkumlar;
- Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan sodir etgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tarzida sudning ajrimi asosida yuborilgan voyaga yetgan mahkumlar.

Manzil-koloniyalarda mahkumlar qolgan ijro muassalaridan farqli ravishda quyidagi vazifalarni erkin amalga oshirishga ruhsat etiladi

1. Soqchisiz, ammo nazorat ostida saqlanadilar;
2. Ertalab o'rindan turishdan kechki yotishgacha bo'lgan vaqt mobaynida koloniya hududi doirasida erkin yurish huquqiga ega bo'ladilar;
3. Agar ular bajarayotgan ish yoki olayotgan ta'lim taqozo etsa, ma'muriyatning ruxsati bilan koloniya hududidan tashqarida nazoratsiz yurishlari mumkin;
4. Muassassa majburiy forma belgilamaydi yani mahkumlar fuqarolik kiyimlarida harakatlanadi;
5. pul va qimmatli buyumlarni saqlashi, ulardan cheklanmagan miqdorda foydalanishi mumkin;
6. ishdan bo'sh vaqtda cheklanmagan miqdorda telefon orqali so'zlashishlari, posilka, yo'qlov va banderollar olishlari hamda jo'natishlari mumkin.²

O'zbekiston Respublikasi Manzil koloniyalarida mahkumlarga nisbatan nazorat yumshoq, ular koloniya hududida mustaqil harakatlanishlari, mehnat faoliyatini erkin tanlashlari mumkin.

O'zbekistonda bitta manzil-koloniya mahkum erkaklar va ayollar saqlanishi mumkin, biroq Rossiya qonunchiligida erkak va ayollar bir xil binoda yoki aralash tarzda saqlanishi mumkin emas.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 113-modda

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi 114-modda

Rossiyada manzil-koloniylar Jinoyat ijroiya kodeksi (УИК РФ) asosida tartibga solinadi. Bu kodeksning 745.1-moddasida manzil koloniyalari haqida umumiy tushuncha berilgan bo'lib unda ushbu koloniya turi ozodlikdan mahrum qilishning eng yengil shakli sifatida ko'rsatilgan.³

Hamda bu koloniyalarda quyidagi jinoyatni amalga oshirgan mahkumlarga nisbatan jazo ijrosi amalga oshiriladi:

- ◆ ijtimoiy xavfi past jinoyatlar sodir etganlar;
- ◆ jazo muddatining muayyan qismini o'tagan va yaxshi xulq-atvor ko'rsatganlar;
- ◆ umumrejimdan yengil rejimga o'tkaziluvchilar uchun qo'llaniladi.⁴

Rossiyada mahkumlarning erkinligi O'zbekistonga nisbatan kengroq bo'lib, ular koloniya tashqarisida ishlashi yoki mustaqil ravishda yashashi mumkin, ammo doimiy nazorat ostida bo'ladi.

2. Tashkiliy tuzilma va nazorat shakllari

O'zbekiston Respublikasida mahkumlar koloniya hududida yashaydilar. Saqlash rejimini buzmagani, oilasi bor mahkumlarga jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining qaroriga binoan manzil-koloniya hududida yoki undan tashqarida oilasi bilan alohida yashashga ruxsat berilishi mumkin.

Hududdan chiqish ruxsatnomaga bog'liq agar ular bajarayotgan ish yoki olayotgan ta'lim taqozo etsa, ma'muriyatning ruxsati bilan koloniya hududidan tashqarida nazoratsiz yurishlari mumkin

Yotish va turish qat'iy jadval asosida amalga oshiriladi. Mahkumlar xonalarga bo'lingan yotoqxonalarda yashaydilar. Mahkumlarning ismi va otasining ismi bosh harflari hamda familiyasi yozilgan ro'yxat xonalar eshigining tashqi tarafiga osib qo'yiladi

O'zbekiston Respublikasidagi manzil koloniyalarida tashrif va telefon suhbatlari cheklangan bo'ladi. Nazorat xodimlari muntazam monitoring olib boradi, ya'ni manzil-koloniya ma'muriyatining vakili mahkumlar yashayotgan joyga sutkaning istalgan vaqtida kirishi mumkin.

Rossiya mahkumlar koloniya binosida yoki mustaqil uy-joy ijarasida yashashi mumkin. Koloniya hududidan chiqishda keng erkinliklar beriladi. Masalan, dorixona, do'kon, tibbiy muassasa, bank kabi joylarga borish. Shaxsiy ehtiyojlar taqozo qilganda qisqa muddatli ishlar uchun mahkumlar koloniya hududidan mustaqil ravishda chiqib kelishlari mumkin, Nazorat ko'proq elektron shaklda bo'ladi, ro'yxatdan o'tish

³

⁴ Уголовно-исполнительный кодекс Российской Федерации Раздел IV часть VII <https://ivo.garant.ru>

majburiyat va ushbu jarayon orqali nazorat amalga oshiriladi.

Ichki tartib qoidalari nisbatan yengil, ya'ni uzoq muddatli uchrashuvlar cheklanmagan holda berilishi mumkin va har kuni yaqinlar bilan uchrashish yoki telefon orqali gaplashish imkoniyati kengroq yoki mahkumlar ba'zan oila bilan birga hudud tashqarisida vaqt o'tkazishi mumkin.

3. Mehnat faoliyati va iqtisodiy ta'minot

O'zbekistonda mahkumlar koloniya hududida joylashgan korxonalarda ishlaydilar, ya'ni manzil koloniyasi hududida maxsus sanoat zonalari bo'ladi va mahkumlar o'sha sanoat zonasida majburiy mehnat bilan band bo'lishadi. Mahkumlarning mehnati koloniya ichida nazorat ostida amalga oshiriladi. Hududdan tashqarida mustaqil ishga chiqish imkoniyati cheklangan.

Ishga joylashish koloniya ma'muriyati tomonidan belgilanadi. Koloniya ma'muriyati mahkumning sog'lig'i, kasb-hunar darajasi, intizomi, muassasa ichidagi ehtiyojlar asosida uni qaysi ishga joylashtirishni o'zi belgilaydi. Mahkum faqat ma'muriyat ko'rsatgan ishda faoliyat yuritadi. Mehnatiga tegishlicha haq belgilanadi, biroq oylikning ma'lum qismi majburiy tarzda koloniya xarajatlariga yo'naltiriladi.

Rossiya Federatsiyasida esa mahkum o'zi mustaqil ish topishi mumkin. Rossiya qonunchiligi manzil-koloniya mahkumlarining o'zini ijtimoiy hayotga qaytarish, ya'ni normal hayot tarzida ishlash va jamiyatga moslashuvini qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Shu sababli ish tanlash erkinligi juda keng. Ish joyi koloniya hududida bo'lishi shart emas. Mahkumlar konvoysiz, mustaqil ravishda, jamoat transportida yoki piyoda koloniya hududidan chiqish ruxsati beriladi va qaysi vaqt oraliqida ishga borib-kelishi belgilanadi. Oylik to'liq mahkumga tegishli bo'ladi, faqat soliq va jarimalar ushlab qolinadi. O'zbekistonda mahkum oyligining ma'lum qismi majburiy ravishda koloniya hisobiga o'tkazilishi mumkin, ammo Rossiyada manzil-koloniya bunday cheklov yo'q.

4. Resotsializatsiya, qayta ijtimoiylashuv samaradorligi va qiyosiy tahlilining umumiy xulosalari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Rossiyada manzil-koloniya tizimi jamiyat bilan uzluksiz aloqani rag'batlantirgani uchun qayta ijtimoiylashuv darajasi yuqoriroq.

O'zbekistonda esa tizim tartibli, nazorat kuchli, lekin mahkumning ozodlikka chiqqach tashqi muhitga moslashuvi nisbatan sekinroq kechadi.

Ikki davlatning o'zaro o'xshashliklari: *manzil koloniyalarda jazoni o'tash jazoning yengil shakli sifatida qaraladi, mahkumlarning jamiyatdan butunlay ajralmasligi ta'minlanadi, mehnat va tarbiyaviy ishlar ustuvor hisoblanadi.*

Ikki davlat tizimlari o'rtasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda nazorat darajasi qattiq, Rossiyada esa nazorat soddalashtirilgan hisoblanadi. Hududdan chiqish O'zbekistonda ruxsatnoma asosida erkin ammo ro'yxatdan o'tish orqali. Rossiyada esa o'z ehtiyojlari doirasida qisqa muddatga ruxsatnomasiz ham yo'l qo'yiladi. Mehnat qilish tizimi asosan majburiy va ixtiyoriy shaklda tashkil qilanadi, mustaqil ish topish imkoni mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Manzil koloniyalarida jazoni o'tash tartibini Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi misolida solishtirish shuni ko'rsatadiki, ikkala davlat jazo ijrosida turlicha yondashuvlardan foydalanadi. Rossiya Federatsiyasida manzil-koloniyalar mahkumlarni jamiyatga qaytarishning eng samarali bosqichi sifatida ko'riladi. Bunda mahkumlarning mustaqil ravishda ish tanlashi, koloniya hududidan tashqarida faoliyat yuritishi, erkin harakatlanishi va oylik daromadidan to'liq foydalanishi kabi mexanizmlar ijtimoiy reintegratsiyani kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi tizimida esa tartib-intizomning ustuvorligi, nazoratning qat'iyligi va mehnat jarayonining asosan koloniya hududida tashkil etilishi jazo ijrosining an'anaviy, markazlashgan modelini aks ettiradi.

Ushbu ikki tizimning solishtirilishi O'zbekiston manzil koloniyalarini yanada takomillashtirish uchun bir qator dolzarb yo'nalishlarni ko'rsatib beradi. Avvalo, mehnat faoliyatini liberallashtirish, ya'ni mahkumlarga o'z kasbiy qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda ish tanlash imkoniyatini yaratish, ularga tashqi tashkilotlar bilan mehnat shartnomasi asosida ishlash huquqini berish jazo ijrosining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, mahkumning mehnatidan olinadigan daromaddan mustaqil foydalanish imkoniyatini kengaytirish ham ularning iqtisodiy mas'uliyatini, jamiyatga qaytishdagi mustaqilligini oshiradi.

Bundan tashqari, mahkumlarga hududdan tashqarida harakatlanish bo'yicha nazorat ostida yumshatilgan tartib joriy etilishi va oilaviy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha mexanizmlarni yaratish ularning ruhiy holati va ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususiyl sektor bilan hamkorlikda yangi ish o'rinlari yaratish, manzil koloniyalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan maxsus trening dasturlarini yo'lga qo'yish esa jazo ijrosini yanada insonparvar, samarali va zamonaviy talablarga mos qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan ushbu dolzarb chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi manzil koloniyalarida ichki tartibning insonparvarlashuvi, mehnat jarayonining takomillashuvi, mahkumlarning jamiyatga qaytish ko'rsatkichlarining oshishi hamda jinoyatning qayta sodir etilish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, milliy jinoyat-ijroiya tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Rossiya tajribasidagi ijobiy elementlardan oqilona foydalanish tizimni yanada samarali va

amaliyotga moslashtirilgan holga keltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil yangi tahriri).
4. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-ijroiya kodeksi (УИК РФ). Moskva: Юрайт.
5. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi (УК РФ).
6. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi (2020-yilgi o‘zgartirishlar bilan).

Ilmiy adabiyotlar va darsliklar:

7. Abdullayev X., Xudayberganov H. Jinoyat-ijroiya huquqi. Toshkent: TDIU nashriyoti.
8. Murodov O. Jinoyat ijrosining umumiy masalalari. Toshkent: TDYuU nashriyoti.
9. Zokirov R. Kriminal-ijroiya huquqi asoslari. Toshkent: Adolat, 2020.
10. Алексеев А. И. Уголовно-исполнительное право Российской Федерации. Москва: Норма, 2022.
11. Бойцов А. Н. Исполнение наказаний в виде ограничения свободы и содержания в исправительных учреждениях. Москва: Юристъ, 2021.
12. Кузнецов С. В. Режим в исправительных учреждениях: правовые основы и практика применения. Москва: Юрайт, 2020.

Maqolalar va ilmiy izlanishlar:

13. Abdurahmonov A. “Manzil koloniyalari faoliyatining huquqiy asoslari va amaliy muammolar.” Huquq va jamiyat jurnali, 2022.
14. Toshpo‘latova D. “O‘zbekiston va Rossiya jinoyat-ijroiya tizimlarining taqqoslash tahlili.” Yuridik ilmiy axborotnoma, 2023.
15. Иванов П. “Условия содержания осуждённых в колониях-поселениях: анализ и перспективы реформ.” Российский юридический журнал, 2021.
16. Сергеев Е. “Проблемы трудовой занятости осуждённых в РФ.” Право и государство, 2020.

Internet manbalari:

17. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti.
18. Rossiya Federatsiyasi Federal jazoni ijro etish xizmati (ФСИН России) portali.
19. Lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
20. Consultant.ru — Rossiya Federatsiyasi normativ hujjatlar bazasi.